

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04 RAQAMLI ILMY  
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMY KENGASH**  
**NIZOMIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI**

---

**XONNAZAROVA SALTANAT TULQINOVNA**

**MAKTAB BIOLOGIYA TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING KOGNITIV  
FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH METODIKASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 - Ta'lif va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi aftoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)**

**Xonnazarova Saltanat Tulqinovna**

Maktab biologiya ta'limida o'quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirish metodikasini takomillashtirish.....	3
--	---

**Хонназарова Салтанат Тулкиновна**

Совершенствование методики активизации когнитивной деятельности учащихся в школьном биологическом образовании.....	26
--	----

**Khonnazarova Saltanat Tulkinovna**

Improving the methodology for activating students' cognitive activity in school biological education.....	52
---	----

**E'lon qilingan ishlar ro'yhati**

Список опубликованных работ

List of published works.....	56
------------------------------	----

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04 RAQAMLI ILMY  
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMY KENGASH**  
**NIZOMIY NOMIDAGI O'ZBEKİSTON MILLİY PEDAGOGİKA  
UNIVERSİTETİ**

---

**XONNAZAROVA SALTANAT TULQINOVNA**

**MAKTAB BIOLOGIYA TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING KOGNITIV  
FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH METODIKASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Ped6639 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) hamda «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ergasheva Gulruxsor Surxonidinovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Juginsov Tangirbergen Isaevich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Raximov Atanazar Karimovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor


**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi Ph.D.03/30.12.2019.B.20.04 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025 yil «30» sentyabr kuni soat 11<sup>00</sup> dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko‘chasi, 1-uy. Universitet majlislar zali. Tel.: (+99861) 223-60-47, faks (+99861) 223-60-78, E-mail: [karsu.info@edu.uz](mailto:karsu.info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№368-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko‘chasi, 1 uy, Tel.: (+99861) 223-59-49.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «15» sentyabr kuni tarqatildi.  
(2025 yil «15» sentyabrdagi 9-raqamli reestr bayonnomasi)



**M.A.Jumanov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

**M.K.Begjanov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.f.d., dotsent

**Ya.L.Ametov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zaruriyati.** Globallashuv sharoiti dunyoda ta’lim tizimini integratsiyalash, bilim oluvchilarning kognitiv faoliyatini strategik rivojlanish talablariga moslashtirish sifatiga jiddiy e’tibor qaratishni taqozo etib, YUNESKO tomonidan qabul qilingan xalqaro hujjatda ta’limning “barqaror rivojlanish maqsadi”, shuningdek, kognitiv, ijtimoiy-emotsional va axloqiy natijalari aniqlashtirildi<sup>1</sup>. Shu nuqtai nazardan, ta’limni raqamlashtirish sharoitida biologik jarayonlarni virtuallashtirish (Virtualization), maqbullashtirish (Software Optimization) va internet tarmog‘idagi ommaviy onlayn ochiq kurslar, mega-portallar, innovatsion ta’limning (3D learning; e-learning platformsi: Moodle, Ilias va h.k.) jadal ravishda ommalashib borayotganligi maktab ta’limida o‘quvchilarining kognitiv faoliyatini faollashtirish bilan bog‘liq ijodiy faoliyati rivojlantirish va doimiy ravishda yangi g‘oyalarni izlab topish, amaliy faoliyat tajribalari bilan uyg‘unlashtirishni taqozo qilmoqda.

Jahonda ta’limga kognitiv yondashuv asosida ta’lim oluvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, o‘quvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish orqali ijodiy ta’lim jarayonini loyihalashtirishning zamonaviy metodik ta’minotini yaratish, maktab ta’limi sifatini ta’minlash yo‘nalishlarida samarali tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda ilg‘or xorijiy tajribalarga muvofiq XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirish, so‘rovga asoslangan ta’lim, 4 K tamoyili, 5 E ta’lim modellari asosida o‘quvchilar kognitiv faoliyatini faollashtirish muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilarning kognitiv faoliyatni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini raqamli ta’lim muhitida interfaol texnologiyalar vositasida takomillashtirilishi, o‘quvchi va o‘qituvchi hamkorligi tufayli yuzaga kelgan kognitiv bilish jarayonini faollashtirishga xizmat qilishi ahamiyatli hisoblanadi.

Respublikamizda o‘qitishning milliy va xalqaro ilg‘or tajribalariga muvofiq sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida o‘quv jarayonlarini optimallashtirish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish borasida keng islohotlar amalgalashirilmoqda. Natijada, maktab ta’limi muassasalarida o‘qitish sifati va samaradorligi oshirilib, o‘quvchilarda kreativ, yangicha tafakkur rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bilan bir qatorda o‘quvchilar mustaqil ijodiy o‘quv bilish faoliyatini faollashtirish zaruriyati mavjud. Ayniqsa, biologiya ta’limi jarayonida erkin fikrlay olish darajasi va mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirish, “o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish”<sup>2</sup>, o‘quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-son «Ta’lim to‘g‘risidagi» Qonuni<sup>3</sup>, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-

<sup>1</sup> UNESCO (2019). Education for Sustainable Development Goals: learning objectives UNESCO 2017. Retrieved from <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000247444>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 -yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli farmoni // <https://lex.uz/docs/-4312785>.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta’lim to‘g‘risida. O‘PQ-637-son. 2020-yil 23-sentyabr. <https://www.lex.uz/docs/1164442>.

avgustdagagi PQ-4805-son<sup>4</sup>, «Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzlusiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son, «Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarorlari<sup>5</sup>, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-oktyabrdagi VMQ-646-son, «Umumta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini joriy etish to‘g‘risida» qarori<sup>6</sup>, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasiga oid davlat dasturiga muvofiq ravishda 2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturi, shuningdek, ushbu sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ta’lim jarayonini takomillashtirishga doir vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darjasи.** Respublikamizda kognitiv faoliyatni tashil etish va rivojlantirish sohasida A.T.G‘ofurov, J.O.Tolipova, O.Mavlonov, I.T.Azimov, U.E.Raxmatovlarning ta’lim oluvchilarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan. Biologiya o‘qitish metodikasini takomillashtirishda kognitiv faoliyatning turli jihatlari kognitiv faoliyatni faollashtirishning raqamli ta’lim muhitida elektron resurslar, virtual texnologiyalari vositasida takomillashtirish muammolarini: G.S.Ergasheva, U.B.Baxodirova Sh.Xasanova, N.D.Xayrullayeva, L.Qoraxonovalarning dissertatsiya tadqiqotlarida biologiyani o‘qitishda ta’lim sifati va samaradorligini oshirish imkoniyatlari ochib berilgan, o‘qituvchi va o‘quvchilarining faolligini shakllantiruvchi ta’lim usullari, vositalari va shakllarining tizimli to‘plami sifatida ta’riflangan.

MDH olimlaridan kognomikaning rivojlanishi, kognitiv faoliyatni faollashtirishning nazariy, ilmiy-metodik asoslari L.O.Bilimxanova, M.P.Karpenko, V.V.Pasechnik, I.N.Ponomareva, Yu.A.Selivanova, M.Subanova; kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari, N.A.Vedmesh, L.S.Vigotskiy, G.I.Shukina; biologiya ta’limi samaradorligini oshirishda kognitiv faoliyatni faollashtirish sohasida: L.I.Svetkova, M.A.Yakunchev tadqiqotlar olib borgan. Kognitiv faoliyatni tibbiy korreksiyalash sohasida T.T.Batisheva, V.V.Katunovalar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzlusiz ta’lim sifatini oshirish va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-4805-son. 2020-yil 12-avgust. <https://lex.uz/ru/docs/49454770>.

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-4963-son. 2021-yil 25 yanvar. <https://lex.uz/docs/-5239538>.

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Umumta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini joriy etish to‘g‘risida. VMQ-646-son. 2020 yil 12-oktyabr. <https://lex.uz/docs/5044726>.

Xorijiy davlatlarda: M.Johanna, R.Barac va boshqalar, L.F.Zhang, D.Watkins, M.Zhanguzhinova, B.E.Yerys va boshqalar, B.F.Skinner, K.Taylor kabi xorijiy tadqiqotchilar kognitiv faoliyatni faollashtirish sohasida ko‘pgina ilmiy izlanishlar olib borgan.

Maktab biologiya ta’limida o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirish metodikasini takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, kognitiv faoliyatni faollashtirishga oid topshiriqlarini xalqaro tajribalar asosida chuqur va ko‘p qirrali integratsiyalash talablariga muvofiq o‘quvchilarning kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirish alohida tadqiq etilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Pedagogik yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron ta’lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish” mavzusi (2020-2022) doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Maktab biologiya ta’limida o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

maktab biologiya ta’limida o‘quvchilarining kognitiv faoliyatini takomillashtirishning pedagogik va metodik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

biologiyani o‘qitish jarayonida o‘quvchilarining kognitiv faoliyatini faollashtirishning funksional-metodik modelini ishlab chiqish;

biologiya ta’limi jarayonida o‘quvchilarining kognitiv faoliyatini rivojlantirishning zamonaviy metodik ta’minotini takomillashtirish;

maktab biologiya ta’limida o‘quvchilarining kognitiv faoliyatini takomillashtirishning zamonaviy metodikasi samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** Maktab biologiya ta’limida o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba – sinov ishlari Tajriba sinov ishlari 2021-2024 yillarda Farg‘ona viloyati Rishton tumanidagi № 8, Navoiy viloyati Xatirchi tumanidagi № 37, Toshkent shahar Chilonzor tumanidagi № 200-sloni IDUM maktab ta’limi muassasasida o‘tkazildi. Tajriba-sinov maydonlarida tajriba va nazorat sinflari tanlab olindi. Tajriba-sinov uchun 7, 8, 9-sinflar bo‘yicha 540 nafar o‘quvchilar, shundan 270 nafari tajriba, 270 nafari sinov guruhlari o‘quvchilari jalg etildi.

**Tadqiqotning predmeti.** Maktab biologiya ta’limida o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirish shakli, vositasi va metodlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda nazariy tahlil qilish, pedagogik jarayonni modellashtirish, tadqiqot mavzusiga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish; empirik metodlar: anketa so‘rovnomalari, test, pedagogik tajriba-sinov, o‘zini-o‘zi baholash, ekspert baholash, olingan natijalarni statistik qayta ishslash metodlaridan foydalanildi.

## **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

maktab biologiya ta’limida o‘quvchilar kognitiv faoliyatini faollashtirishning pedagogik imkoniyatlari kognitiv kompetentlikni rivojlantirishga ustuvorlik berish hamda kognitiv faoliyatni takomillashtirishning innovatsion metodik tizimini ishlab chiqish, kognitiv faoliyat topshiriqlarini chuqur va ko‘p qirrali integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

biologiya ta’limi jarayonida o‘quvchilarining kognitiv faoliyatini faollashtirishning funksional-metodik modeli maqsadli, mazmunli va natijaviy komponentlari xorijiy tajribalar asosida integral muvofiqlashtirish, o‘quv jarayonini tizimli rejashtirish, o‘quv materiallarini maqsadli identifikatsiyalash, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini kompleks baholash hamda ularning o‘quv faoliyatini samarali tashkil etishga oid komponentlar asosida takomillashtirilgan;

biologiya ta’limi jarayonida o‘quvchilarining kognitiv faoliyatini faollashtirishning zamonaviy metodik ta’mnoti muammoli-izlanishga asoslangan o‘quv topshiriqlari (keyslar), kreativ fikrlashni rag‘batlantiruvchi intellektual, va mental xaritalar ijodiy topshiriqlar hamda mustaqil ta’lim jarayonini optimallashtirishga qaratilgan kognitiv-rivojlantiruvchi materiallar asosida takomillashtirilgan;

o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini baholash samaradorligi kognitiv faoliyatni ko‘p qirrali va obyektiv baholash, ularning individual rivojlanish dinamikasini diagnostikalash, monitoring qilish orqali aniqlash, zarur pedagogik korreksiyalash hamda biologiya ta’limi samaradorligini orttirish texnologiyasi asosida aniqlashtirilgan.

## **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

amaliy jihatdan olingen natijalar respublikamiz maktab ta’limi muassasalarida biologiya darslarida kognitiv faoliyatni faollashtirishning metodik vositalari yaratilgan;

“Biologiyani o‘qitishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish” (ro‘yxatga olish raqami 2024-481U-483), nomli o‘quv qo‘llanma yaratilgan va ta’lim amaliyotiga joriy etilgan;

o‘quvchilar kognitiv faoliyatini faollashtirishga doir metodik tavsiyalar “Biologiyada xalqaro baholash tadqiqotlari” (ro‘yxatga olish raqami 194-345), “Xalqaro baholash tadqiqotlari (PISA, TIMSS, PIRLS)” ro‘yxatga olish raqami (194-341) o‘quv qo‘llanmalari mazmuniga singdirilib, ta’lim amaliyotiga tatbiq etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo‘llangan yondashuv va usullar ilmiy-metodik jihatdan asoslangani, nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olingen, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik statistika metodlari yordamida asoslangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani hamda olingen natijalarning vakolatli taskilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirishning pedagogik aspektlari zamonaviy yondashuvlar va xorijiy tajribalar, interfaol texnologiyalar asosida amaliy jihatdan uzviy o‘rganilib pedagogik muammo sifatida asoslanganligi; biologiya ta’limi xususiyatlaridan kelib chiqib, o‘quvchilar bilish faoliyatini

faollashtirishning mazmuni, metodik shart-sharoitlari, zamonaviy interfaol metod, shakl va vositalari aniqlanganligi, biologiya darslarida o‘quvchi kognitiv faoliyatni faollashtirish darajasini baholash vositalari ishlab chiqilib, samaradorligi aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, uning doirasida ishlab chiqilgan psixologik – pedagogik, diagnostik, texnologik, metodik materiallardan o‘quvchilar bilan ishlashda innovatsion texnologiyalari, diagnostika vositalaridan foydalanish bo‘yicha metodik tavsiyalardan maktab o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish, yangi avlod darsliklarini yaratishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Maktab biologiya ta’limida o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

maktab biologiya ta’limida o‘quvchilar kognitiv faoliyatni faollashtirishning pedagogik imkoniyatlari kognitiv kompetentlikni rivojlantirishga ustuvorlik berish hamda kognitiv faoliyatni takomillashtirishning innovatsion metodik tizimini ishlab chiqish, kognitiv faoliyat topshiriqlarini chuqur va ko‘p qirrali integratsiyalash asosida takomillashtirishga oid uslubiy tavsiyalari "Biologiyani o‘qitishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish" nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan va amaliyotga tatbiq etilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Kengashining 2024-yil 28-oktyabrdagi 313.1-sonli qarori asosida berilgan 2024-481U-483 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada maktab biologiya ta’limida o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirish metodikasini takomillashtirishda raqamli ta’lim imkoniyatlari kengaytirilgan;

biologiya ta’limi jarayonida o‘quvchilarining kognitiv faoliyatini faollashtirishning funksional-metodik modelini maqsadli, mazmunli va natijaviy komponentlarni xorijiy tajribalar asosida integral muvofiqlashtirish, o‘quv jarayonini tizimli rejalshtirish, o‘quv materiallarini maqsadli identifikatsiyalash, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini kompleks baholash hamda kognitiv-assosiativ a’loqlarni modelli transformatsiyalash asosida takomillashtirishga oid metodik tavsiyalari "Xalqaro baholash tadqiqotlari (PISA, TEMSS, PIRLS)" nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-maydagi 194-son buyrug‘i asosida berilgan 194-345 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada maktab biologiya ta’limida o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirish metodikasini takomillashtirish mazmuni boyitilgan;

biologiya ta’limi jarayonida o‘quvchilarining kognitiv faoliyatini faollashtirishning zamonaviy metodik ta’minoti muammoli-izlanishga asoslangan o‘quv topshiriqlari (keyslar), kreativ fikrlashni rag‘batlantiruvchi intellektual va mental xaritalar ijodiy topshiriqlar hamda mustaqil ta’lim jarayonini optimallashtirishga qaratilgan kognitiv-rivojlantiruvchi materiallar asosida takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalari "Biologiyani o‘qitishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish" nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 29-martdagi 11-05-1971/04-sonli dalolatnoma). Natijada maktab biologiya ta’limida

o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltiruvchi o‘qitishning intensivligi ta’minlangan;

o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini baholash samaradorligi kognitiv faoliyatni ko‘p qirrali va obyektiv baholash, ularning individual rivojlanish dinamikasini diagnostikalash, monitoring qilish orqali aniqlash, zarur pedagogik korreksiyalash hamda biologiya ta’limi samaradorligini orttirish texnologiyasi asosida aniqlashtirishga oid yondshuvlari "Xalqaro baholash tadqiqotlari (PISA, TEMSS, PIRLS)" nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 29-martdagi 11-05-1971/04-sonli dalolatnama). Natijada maktab biologiya ta’limida o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini baholash metodikasini takomillashtirish samaradorligi oshgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, 2 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosalar va tavsiyalar, foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsyaning hajmi 122 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi respublika va xorijiy mamlakatlarda amalgalashirilgan tadqiqotlar misolida tahlil qilingan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari belgilangan, shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati dalillar yordamida ko‘rsatib berilgan, muhim natijalarning ommalashtirilganlik darajasi yoritilgan.

Dissertatsyaning "**Biologiya ta’limida o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirishning pedagogik va psixologik jihatlari, didaktik imkoniyatlari, tashkiliy shakllari, zamonaviy yondashuvlari tahlil etilgan.

Antik davrlardanoq inson kognitiv faoliyat bilan bog‘liq tushuncha va jarayonlarni anglashga harakat qilgan. Bu urinishlar natijasida:

akmeologiya - "Akmeologiya" so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, ikkita ma’noni anglatadi: akme - tepa, logos - ta’limot. Bugungi kunda "akmeologiya" atamasi insonning eng yuqori yutuqlari haqidagi fanni anglatadi.

gnoseologiya - (lotincha "gnosis" – bilish va "logos" – ta’limot) so‘zma-so‘z "bilish haqidagi ta’limot" yoki "bilish nazariyasi" deb tarjima qilinadi. U bilish jarayonini, bilishning turli shakllarini (masalan, sezgi, fikr, tasavvur) va shu bilish natijasida hosil bo‘ladigan bilimning obyektiv haqiqatga mosligini o‘rganadi.

didaktika - (qadimgi yunoncha: διδακτικός, didaktikos - "o‘rgatuvchi", "ta’lim beruvchi") - pedagogikaning tarmog‘i.

XX asrning ikkinchi yarmining boshlarida kompyuter axborot tizimlarini yaratilishi yana bir bor kognitiv jarayonining chegarasini kognetika (aqliy jarayonlar va bilimni qayta ishlashni o‘rganishga qaratilgan fan sohasini anglatadi) deb nom olgan va fanga bag‘ishlangan inson-mashina interfeysi sohasidagi tadqiqotlar asosida yoritdi.


M.P.Karpenkoning “Kognomika” nomli monografiyasida kognitiv faoliyatni rivojlantirish bilan bog‘liq mavjud fanlarning o‘zaro aloqadorligini anglash, ularning zamonaviy jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga o‘zaro ta’sirini tushunish sohasiga qaratilgan, sintetik ilmiy yo‘nalish- kognomikani yaratishga doir tadqiqoti muhim ahamiyat kasb etadi. Kognomika kognitiv faoliyat muammosi bilan bog‘liq barcha jihatlarni qamrab oladi.

Shu tariqa insoniyatning kognitiv jamiyat bilan bog‘liq ishlab chiqarish imkoniyatlariiga integratsiyalashgan yangi fan sohasi vujudga keldi.

XX asrda kognitiv psixologiya - insonning kognitiv faoliyatining psixologik mexanizmlarini o‘rganuvchi, psixologik atamalarda kognitiv faoliyatni tavsiflovchi psixologianing bo‘limi paydo bo‘ldi.

Keyinchalik neyropsixologiya bo‘yicha ishlar paydo bo‘ldi, ularda kognitiv faoliyat ichki miya, nevron jarayonlari darajasida o‘rganildi. Bu yo‘lda muayyan natijalarga erishildi, ammo kognitiv faoliyat mexanizmlarining yaxlit tavsifi ishlab chiqilmagan.

Psixologik nuqtai nazardan kognitiv jarayonlarni quyidagi turlari ajratiladi (1-rasmga qarang):



**1-rasm. Psixologik kognitiv jarayonlarning turlari**

Tayanch kognitiv jarayonlar: idrok, diqqat, axborotni qayta ishslash va xotirani o‘z ichiga oladi. Yuqori kognitiv jarayonlar: fikrlash, ijro funksiyalari va o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

O‘quvchilarning kognitiv faoliyati – bu u yoki bu o‘quv fanini o‘qitish jarayonida o‘qituvchining pedagogik faoliyatiga muvofiq holda tashkil etiladigan faoliyat sanaladi.

O‘qituvchining pedagogik faoliyati va o‘quvchilarning kognitiv faoliyat maqsadga muvofiq uyg‘un holda tashkil etilgandagina ko‘zlangan maqsadga erishiladi.

Shaxsnинг kognitiv faoliyati keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u shaxsnинг butun hayoti davomida, olam, jamiyat qonunlari, amaliyotda, hayotda bilim, ko‘nikma va malakalarни o‘zlashtirish jarayoni tushuniladi. Kognitiv faoliyat o‘quvchilarning

umumi o‘rta ta’lim mакtablarida tashkil etiladigan o‘quv faoliyatni asosida rivojlanadi va mukammallashadi.

Shu sababli, o‘quvchilarning kognitiv faoliyatni tashkil etish va faollashtirish, uning tarkibiy qismlarini aniqlash muammosi vujudga keladi.

F.Abdugurova maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda kognitiv faoliyatni rivojlantirish muammosini ta’lim materiallari mazmunining nazariy darajasini ko‘tarish va maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv mustaqilligini rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan pedagogik muammolar sifatida talqin etadi va kognitiv faoliyat tushunchasini quyidagicha tavsiflaydi: kognitiv faoliyat shaxsiyatning ijtimoiy ahamiyatli fazilati bo‘lib, turli xil faoliyat turlarida maktabgacha yoshdagi bolalar orasida shakllanadi .

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida o‘quvchilar kognitiv faoliyatni faollashtirishning didaktik shart sharoitlari quyidagicha belgilandi (1-jadvalga qarang).

### **1-jadval**

#### **O‘quvchilar kognitiv faoliyatni faollashtirishning didaktik shart sharoitlari**

<b>№</b>	<b>Didaktik shart-sharoitlar</b>	<b>Mazmuni</b>
1.	O‘quv materialini qayta ishslash	Umumi biologik tushunchalarni rivojlantirish O‘qitishda fanlararo bog‘lanishni amalga oshirish Mavzu matnidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘quv maqsadlariga aylantirish
2.	O‘quv materialini qo‘sishma materiallar bilan boyitish	Mavzu mazmuniga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga oid materiallar kiritish Mavzu mazmuniga ma’naviy meroslarni va hadislarni kiritish Ulug‘ allomalar va olimlarning ishlarini kengroq o‘rganishni yo‘lga qo‘yish Biologyaning zamonaviy yutuqlariga oid materiallar kiritish

O‘quvchilarning kognitiv faoliyatning asosiy qismi darslarda tashkil etiladi.


Mazkur yondashuvlar asosida, o‘quvchilar kognitiv faoliyatni faollashtirishning pedagogik shart-sharoitlari quyidagicha belgilandi (2-jadvalga qarang).

## 2-jadval

### O‘quvchilar kognitiv faoliyatni faollashtirishning pedagogik shart sharoitlari

<b>№</b>	<b>Pedagogik shart-sharoitlar</b>	<b>Mazmuni</b>
1.	Ta’lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarining uzviyligini ta’milash	<p>Ta’lim mazmuni tarkibiy qismlarini o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish bosqichlariga amal qilish;</p> <p>Ta’lim mazmuniga bog‘liq holda dars tiplari va turlarini belgilash;</p> <p>O‘qitishda interaktiv metodlardan foydalanish</p> <p>O‘qitishda tabiiy, tasviriy va raqamli texnologiya mahsullaridan foydalanish</p> <p>Dars tipi va turiga bog‘liq holda pedagogik texnologiyadan foydalanish</p> <p>O‘qitishda dars, darsdan tashqari ishlar, ekskursiyalar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni uzviy tashkil etish</p>
2.	O‘qitishda teskari aloqani samarali tashkil etish	<p>Keng qamrovli test topshiriqlaridan foydalanish</p> <p>Kompyuter texnologiyasi mahsuli nazorat dasturlaridan foydalanish (Kahoot, Quiz)</p>
3.	Olingan natijani tahlil qilish	O‘qitish jarayoni natijasini e’tiborga olgan holda mazkur jarayonning borishiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish

«Biologiya»ni o‘qitishda o‘quvchilarning kognitiv faoliyatni tashkil etish va boshqarishning quyidagi yo‘llari tavsiya etiladi (2-rasmga qarang):



**2-rasm. «Biologiya»ni o‘qitishda o‘quvchilarning kognitiv faoliyatni tashkil etish va boshqarish yo‘llari**

O‘quvchilarning fikrlash darajasiga ko‘ra, kognitiv faoliyatning ikki turi mavjud: reproduktiv va ijodiy (samarali).

Biologiya fanidan o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini tashkil etish va samaradorligini ta’minlashda interfaol, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

Dissertatsiyaning “**Maktab biologiya ta’limida o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirish metodikasi**” deb nomlangan ikkinchi bobida biologiya darslarida, sinfdan va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirish metodikasi interfaol ta’lim texnologiyalari asosida uslubiy jihatdan takomillashtirilgan.

Zamonaviy mакtab ta’lim standarti o‘qitishning faoliyatli xarakteriga ko‘ra o‘quvchilarga biologiya fani mazmunida fanga oid, metapredmetli va shaxsiy (individual) xususiyatlarni egallashni talab etadi. Maktab biologiya kursida fanga oid natijalar o‘quvchilar tomonidan biologik bilimlarni egallash bilan tavsiflanadi. Biologik bilimlar orasida umum-biologik, botanik, zoologik, sitologik, anatomik, morfologik, fiziologik va h.k. bilimlarni egallaydi. O‘quvchilarning biologiya darslarida mazkur bilimlarni egallashda o‘quvchilar kognitiv faoliyatini turli shakllarda tashkil etish samarali natija beradi.


O‘quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirishning metodik jihatdan takomillashtirish maqsadida biologiya ta’limida o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirishning funksional-metodik modeli ishlab chiqildi (3-rasmga qarang).

Mazkur model: maqsadli, mazmunli tashkiliy va natijaviy bloklardan iborat.

Maqsad blokida muammolarni hal qilish uchun kognitiv faoliyatni egallashning ijtimoiy talablarga moslashtirishni talab etadi. Shuningdek, o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirish uchun didaktik, pedagogik va metodik shart-sharoitlar aniqlashtirildi va o‘quvchilar kognitiv faoliyatini faollashtirish yo‘llari darsda mustaqil ish jarayonida darsdan va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda faollashtirish yo‘llari bilan uyg‘unlashtirildi.

Mazmunli blokida maktab biologiya ta’limi amaliyotida o‘qituvchilarning yangi avlod DTS talablarini bajarishini ta’minlash uchun ta’limda innovatsion texnologiyalar tajribasi to‘plangan. Shu bilan birga o‘quvchilar kognitiv faoliyatini faollashtirish biologiya darsliklari materiallari, qo‘srimcha materiallar va turli biologik kechalar, intellektual o‘yinlar, amaliy tajribalar va kuzatishlar asosida amalga oshirildi.

Tashqiliy blokda o‘quvchilar kognitiv faoliyatini faollashtirish shakl, metod va vositalari uzviyligida ta’lim oluvchilarning ijodiy faolligini amalga oshirish va shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’limning faoliyatli pedagogik texnologiyalaridan tobora kengroq qo‘llanilmoqda. Masalan, o‘yin texnologiyalari, AKT texnologiyalari, muammoli ta’lim texnologiyasi, interfaol texnologiyalar, keys texnologiyasi, vitagen ta’lim texnologiyasi va boshqalar. Mazkur texnologiyalarga mos ravishda metodlar hamda topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi hamda ularni tatbiq etishda individual, guruhli va jamoaviy tashkil etish turlaridan foydalanildi.



**3-rasm. Biologiya ta’limida o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirishning funksional-metodik modeli**

Interfaol usullardan foydalanish (muammoli, axborot- kommunikatsion, oyinli) individual va guruh shaklida hamda o‘qituvchining shaxsi tomonidan, shu jumladan yig‘indisini tashkil etish usuli ta’lim faoliyatini tashkil etish biologiya faniga bo‘lgan bilishga bo‘lgan qiziqishni samarali shakllantirish va kengaytirish imkonini beradi.

Shuningdek, biologiya darslarida o‘quvchilarining kontekstli ta’lim texnologiyasidan, kontekstli topshiriqlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kontekstli muammolarni hal qilish uchun algoritm ishlab chiqilgan.

Kontekstli topshiriqlarni tuzish algoritmi.

1. Yechish jarayonida o‘quvchilar qanday bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishini aniqlang.

2. Qanday axborot va tahliliy qobiliyatlardan foydalaniladi.

3. O‘quvchilar uchun shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan sohalarni tanlang (atrof-muhit, kundalik muammolar, qishloq xo‘jaligi va boshqalar).

4. Konteksti toping.

5. Axborot yetishmasa, manbalarga havolalar, ortiqcha ma’lumotlar bo‘lsa, klasterlar, jadvallar, diagrammalar taqdim eting.

6. Ushbu vazifaning tegishli tuzilishini modellashtiring.

7. Natijalarni taqdim etish shakllarini taklif qiling.

1-topshiriq. 7-sinf

1980-yillarning oxirida Janubi-Sharqiy Osiyodagi Bangladesh davlati qurbaqa oyoqlarini eksport qilish orqali muvaffaqiyatli valyuta ishlab topdi. Umumiyl foyda yiliga 10 million dollarga yetdi. Biroq, tez orada qurbaqalar soni kamaydi, pashshalar va chivinlar shunchalik ko‘paydiki, maxsus himoya vositalari sotib olish kerak bo‘ldi. Bunday biznesning oqibatlarini “yumshatish” uchun juda ko‘p pul kerak bo‘ldi.

1) Biotsenozlardagi tirik organizmlarning munosabatlari haqidagi bilimlardan foydalanib, ushbu ma’lumotlarni muhokama qiling.

2) Bu holatda o‘zini namoyon qiladigan tirik organizmlar o‘rtasidagi munosabatlar qonunlarini taklif qiling.

3) Ushbu ma’lumotlardan foydalanib oziq zanjiri sxemasini yarating.

4) Ushbu ma’lumotlarning hayotdagি ahamiyatini baholang.

Bunday kontekstli topshiriqlardan foydalanish nafaqat fanga qiziqishni rivojlantiradi, balki shaxsiy, kognitiv va meta-predmetli universal o‘quv faoliyatini shakllantiradi, ta’limga ijodiy yondashishni rivojlantiradi.

**Dasturlashtirilgan topshiriqlar.** Dasturlashtirilgan ta’lim elementlari har bir o‘qituvchining amaliyotida mustahkam o‘rin olgan. Maktab o‘quvchilarining darslik bilan mustaqil ishini tashkil etish va o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun mo‘ljallangan dasturlashtirilgan topshiriqlar muvaffaqiyatli qo‘llaniladi. Bunday metodlar sirasiga “Keys study” metodi ham kiradi. Keys stadiy metodi vazifalarni darsga tizimli ravishda kiritish muayyan afzalliklarga ega, xususan: o‘quv materialini elementar o‘zlashtirish amalga oshiriladi, har bir o‘quvchi tomonidan materialni o‘zlashtirish darajasini nazorat qilish ta’minlanadi. Ammo muhim kamchilik ham bor: bunday trening o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga unchalik yordam bermaydi. Bu kamchilikni dasturlashtirilgan o‘qitish elementlarini boshqa usullar – muammoli taqdimot, darsni o‘tkazishning faol

shakllaridan foydalanish, tabaqalashtirilgan uy vazifalari, dars uchun taqdimotlar yaratish bilan birlashtirish orqali tuzatish mumkin.

Ko‘pgina o‘qituvchilarning o‘zлari dasturlashtirilgan topshiriqlarni tuzish bilan shug‘ullanadilar. O‘qituvchining vaqtini tejash uchun matab biologiya darsligiga asosan, biologiya dasturida belgilangan o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablarni hisobga olgan holda ushbu topshiriqlar yozilgan yo‘riqnomalar shakllari va Keys stadiy metodiga xos topshiriqlar tuzilgan.

Keys stadi-amaliy holatlarni o‘qitish metodi;

K (knowledge – bilim):

E (experience – tajriba):

Y (yourself – o‘zlik):

S (solutions – yechimlar):

T (test – tekshirish):

A (actions – harakatlar):

D (decisions – qarorlar):

I (implications – ta’sirlar):

8-SINF Odam va uning salomatligi darsligidan tuzilgan topshiriqlar

“Ko‘z nurining so‘nishi”, “10 yoshli bolaning A vitamini tanqisligi bilan bog‘liq salomatlik holati”, “Psixologik salomatlik”, “Organizmni chiniqtirish teri gigiyenasi”, “Noto‘g‘ri ovqatlanish va ovqat hazm qilish tizimi bilan bog‘liq muammolar”, “Shaxsiy gigiyena muammosi”, “Qaddi-qomatning shakllanishi”, “Kam harakatlilik oqibatlari”, “Og‘ir sumka – og‘ir oqibat”, “Noto‘g‘ri ovqatlanish oqibatlari”, “Anvarning yelkasi pastga tushgan....”, “Smartfon va salomatlik”.

## 5E TA’LIM MODELI

1. Engage (qiziqtirish)
2. Explore (o‘rganish)
3. Explain (tushuntirish)
4. Elaborate (Kengaytirish)
5. Evaluate (baholash).

“Yodlab o‘rganish”dan uzoqlashtiradi va “tushunib o‘rganish va qo‘llash”ga chorlaydi. “Mo‘jizalar maydoni” intellektual o‘yini, “Biologyaning ajoyib dunyosi”, “Lobirint topshiriqlari”, “Organ va organlar tizimi” bo‘yicha tuzilgan o‘yin, “Biologyaning ajoyib dunyosi” intellektual o‘yin, “Hayvonlarni yoki o‘simgulkarni tanib oling” (Tezkor viktorina), “Hujayraning tuzilishi va funksiyalari”, “Klonlash ustidan sud”.

## 4K TAMOILI-METODI

Kommunikativlik: Axborot almashinish.

Kollobratsiya: Hamkorlik.

Kreativ fikrlash: Yangicha yondashuv.

Kritik fikrlash: Tanqidiy fikrlash.

“O‘z gulingizni yarating”, “Hujayra fabrikasi”, “Hujayra hayoti”, “Embrion rivojlanishi”, “No‘xat ustidan sud”, “Genetik maslahat”.

Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirishda “Biologiya” o‘quv fani bo‘yicha ayrim o‘quvchilar bilan olib

boriladigan sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarining o‘zlashtirgan bilimlarini mustahkamlash, uni amaliyotga qo‘llash, kasbga yo‘llash, tajriba va kuzatishlar o‘tkazish, mantiqiy, mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mashg‘ulotlarda o‘quvchilarining mustaqil o‘qishlari uchun sog‘lom turmush tarzi, turli kasalliklarning kelib chiqish sabablari, sport va jismoniy mashqlarning inson salomatligiga ta’siri haqidagi ilmiy-ommabop nashrlar, “Sihat-salomatlik”, “Salomatlik sirlari” va boshqa jurnal sahifalarida chop etilgan maqolalar, tirik organizmlarning tuzilishi bo‘yicha tayyorlangan multimedia, inson salomatligi ensiklopediyalarini o‘rganish tavsiya etiladi.

O‘quvchilarining o‘z salomatliklarini asrash, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida muayyan mavzularda kuzatishlar o‘tkazish va amaliy topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi. Jumladan, o‘quvchilarga “Sport va jismoniy mashqlarning odam organlar sistemasiga ta’sirini o‘rganish” bo‘yicha kuzatish o‘tkazish tavsiya etiladi. Kuzatish natijalarini ushbu jadvalga (3-jadval) yozish va xulosa chiqarish zarurligi uqtiriladi.

O‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan sinfdan tashqari mashg‘ulotlarga biologiya o‘quv xonasini jihozlash, tabiatga mavzuli ekskursiyalar tashkil etish, o‘quv jarayoni uchun zarur bo‘lgan ko‘rgazmali vositalar tayyorlash va “Yosh biologlar” to‘garagining ishi misol bo‘ladi.

Biologiya fanidan sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni ommaviy tarzda tashkil etishda mavzu bo‘yicha “Mo‘jizalar maydoni” intellektual o‘yini, “Biologiyaning ajoyib dunyosi”.

### 3-jadval

#### Sport va jismoniy mashqlarning odam organlar sistemasiga ta’sirini o‘rganish


Organlar sistemasi	Ertalab	Normal holatda	Yugurganda		10 kg gantel ko‘targanda		Xulosa
			50 m	100m	5min	10 min	
Yurak faoliyati (puls soni)							
Qon bosimi							
Bir minutda olingan nafas soni							

Darsdan tashqari ish - individual yoki guruh topshiriqlari bo‘yicha majburiy, mavzuga oid ishlarni bajarish uchun o‘quv faoliyatini tashkil etish shakli.

Bularga quyidagilar kiradi (4-rasmga qarang):

Darsdan tashqari ishlarga dasturda nazarda tutilgan biologiyadan yozgi topshiriqlar ham kiradi.

Darsdan tashqari mashg‘ulotlarni quyidagi tashkiliy shakllari mavjud: frontal, sind bilan birgalikda bajariladigan jamoaviy, individual.



#### 4-rasm. Darsdan tashqari ishlarning turlari

Darsdan tashqari ishlar o‘quv ishlari bilan birgalikda maktab o‘quvchilarining kognitiv faolligini faollashtirish, ularni mustaqil ijodiy faoliyatga jalb etish, tashabbuskorlikni, o‘z-o‘zini tarbiyalash ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishning samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Maktab o‘quvchilarining darsdan tashqari mashg‘ulotlarda kognitiv faolligini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyati shundaki, bu faoliyat jarayonida o‘quvchilarning bilim faolligi faoliyatning motivi sifatida barqaror kognitiv qiziqish asosida shakllanadi.

Dissertatsianing **“Pedagogik tajriba-sinovni tashkil qilish va uning samaradorligi”** deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinov ishlarini maqsad va vazifalari, o‘tkazishning asosiy shart-sharoitlari, tajriba-sinov natijalarining statistik tahlili va samaradorlik darajasi haqida fikr yuritilgan.

Tajriba-sinov ishlarining maqsadi maktab biologiya ta’limida o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirish metodikasini takomillashtirish mazmuni, yo‘llari, pedagogik shart-sharoitlar samaradorligini aniqlash sifatida belgilandi. Pedagogik tajriba bir-birini to‘ldirib turuvchi uchta bosqichda – *izlanish* (2021-2022-yy.), *shakllantirish* (2022-2023-yy.), *tasdiqlash bosqichlarda* (2023-2024-yy.) o‘tkazildi.

Tajriba sinov ishlari 2021-2024-yillarda Farg‘ona viloyati Rishton tumanidagi № 8, Navoiy viloyati Xatirchi tumanidagi № 37, Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi № 200-sonli IDUM-maktab ta’limi muassasasida o‘tkazildi. Tajriba-sinov maydonlarida tajriba va nazorat sinflari tanlab olindi. Tajriba-sinov uchun 7, 8, 9-sinflar bo‘yicha 540 nafar o‘quvchilar, shundan 270 nafari tajriba, 270 nafari sinov guruhlari o‘quvchilari jalb etildi.

Tajriba-sinov ishlari 2021-2024-yillar mobaynida uch bosqichda o‘tkazildi.

**Birinchi izlanish bosqichida** (2021-2022 yillar) quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- tadqiqot mavzusiga oid mamlakatimiz va xorijda chop etilgan falsafiy, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik-pedagogik, ilmiy-metodik adabiyotlar o‘rganildi va tahlil qilindi;

- maktab ta’limi muassasalari biologiya o‘quv fanini o‘qitish jarayonini takomillashtirish, zamon talablariga mos holda tashkil etish, pedagogik

texnologiyalardan foydalanish darajasi, metodik ta'minoti va holati tahlil qilindi, istiqboldagi vazifalar belgilandi. Mazkur jarayonda o'quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirishga imkon beradigan pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari ishlab chiqildi va ilmiy-metodik jihatdan asoslandi.

**Ikkinchchi shakllantiruvchi bosqich** (2022-2023-yillar) da:

- məktəb tə'limi müəssisələri biologiya o'quv fanini o'qitishda o'quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqildi;
- məzkrə metodik tavsiyalarning samaradorligini aniqlash maqsadida pedagogik təjriba-sinov ishləri təşkil etildi.

**Uchinchi tasdiqlash bosqichi** (2023-2024-yillar) da:

- təjriba-sinov ishləri davom etdirildi, əlingen nəticələr miqdor va sıfat jihatdan tahlil qilindi, ümumlaşdırıldı;
- ilmiy-tadqiqot nəticələri o'qituvchilar, metodistlər, ilmiy tadqiqotçular və professor-o'qituvchilar ishtirokda muhokama qilindi;
- biologiya o'qituvchiları üçün biologiya o'quv fanini o'qitishda o'quvchilararning kognitiv faoliyatini faollashtirishga imkon yaratadigan metodik qo'llanma yaratıldı.

Təjriba guruhlarida "Biologiya" fani bo'yicha o'quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirish metodikasını takomillashtırış individual, guruhlı və əmməviy shakllarda amalga oshırıldı. Bundan təşqarı 7-8-9-sinf larda təjriba guruhlarida o'quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtırışda dars, darsdan təşqarı və sinfdan təşqarı mashğ'ulotlarnı zəmonaviy tə'lim texnologiyalariga müvofiq, turli topshiriqlar (kontekstli, müamməli, yəriqnoma topshiriqları, o'yin-mashqlar 5 E modeli) və uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqildi və tə'lim amaliyotida qo'llanıldı. Dars mavzuları bo'yicha yuqoridağı pedagogik texnologiyalardan foydalanış rejalashtırılıb, dars ishlanmaları təyyorlandı.

